



«SOHAGA OID TERMINLARNING IMLOSI MASALALARI»
(VETERINARIYA TERMINLARI MISOLIDA) YUZASIDAN
MULOHAZALAR

Unarova Dilafruz Abdimajit qizi

SamDChTI AL o'qituvchisi

(Dilafruzunarova0@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10597321>

Annotatsiya: Maqolada "O'zbek tilining izohli lug'ati" hamda veterinariya terminlarining imlosi bo'yicha mulohazalar yuritilgani.

Аннотация: В статье приведены комментарии к «Толковом словаре узбекского языка» и правописанию ветеринарных терминов.

Abstract: The article provides comments on the "Explanatory Dictionary of the Uzbek Language" and the spelling of veterinary terms.

Калит сўзлар: tilshunoslik, leksikografiya, lug'at, atama, imlo, veterinariya

Ключевые слова: лингвистика, лексикография, словарь, терминология, написание, ветеринария.

Keywords: linguistics, lexicography, dictionary, terminology, writing, veterinary

Tilshunoslikda hozirgi kunda aynan veterinariya terminlarining leksikografik talqini ishlab chiqilmagan bo'lsa-da, lekin meditsina va kimyo sohalari bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilgan. Mana shu atamalarning imlosi esa asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Shu boisdan ushbu maqolamiz orqali atamalarning yozilishini ba'zi so'zlar misolida keltirib o'tamiz.

Mamlakatimizda tilga e'tibor ma'naviyatga e'tiborning ustivor yo'nalishlaridan biriga ko'tarildi. Shu boisdan ona tilimizni asrab-avaylash, boyitish, undan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish bilan birga, o'zbek tilining zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimida o'rganishni joriy qilishimiz lozim.

Tilshunoslikda veterinariya terminlarining leksikografik talqini ishlab chiqilmaganligi yechimini kutayotgan asosiy muammolardan biridir. Shuningdek, Bunday terminlarning o'ziga xos imlosi ham o'rganilayotgan sohamizning muhim bosqichlaridan biri sanaladi. Talaffuz va imlo bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Adabiy til qonuniyati asosida to'g'ri yozish qanchalik muhim bo'lsa, to'g'ri talaffuz qilish ham shunchalik zarur. Ammo so'zning talaffuzi bilan yozilishi doimo mos kelavermaydi. Buni tovushlarning so'zdagi o'rni va o'zaro ta'siri bilan izohlash mumkin. To'g'ri yozish me'yorlarini



o'rganuvchi tilshunoslik bo'limiga orfografiya (yunoncha orfo- to'g'ri, grafo- chizmoq) deyiladi. Hozirgi kunda Samarqand tilshunoslik maktabi vakillari tomonidan ushbu masala bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Meditsina sohasi bo'yicha atamalar tilshunos olimlarimiz tomonidan o'rganilgan. Bu soha bo'yicha Z.Mirahmedova o'zining tadqiqot ishlarini olib borgan. Kimyo fani bo'yicha atamalarni A.Mamadaliyev tomonidan o'rganildi. Hozirgi kunda veterinariya sohasiga oid terminlar tilshunoslik sohasida o'rganilgan emas. Shu sababli sohaga oid terminlarni o'rganishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Hozirgi kunda O'zbekistonda veterinar terminologiya bo'yicha yangi izlanishlar olib borilmoqda. Binobarin, barcha ilmiy yo'nalishlar qatorida tilshunoslikda ham ilmiy va ijodiy izlanishlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular uchun zarur shart-sharoitlar yaratish vazifasining belgilanishi fanlar integratsiyasi bo'yicha zarur izlanishlar olib borish kerakligini ko'rsatadi.

Veterinar atamalarning «O'zbek tilining izohli lug'ati»dagi leksikografik talqini, uning o'ziga xos xususiyati, ijtimoiy, leksikologik, ta'limiy va boshqa sohalardagi ahamiyati, mualliflik leksikografik qimmatini o'rganish, o'zbek tili atamalarini yaratishning leksikografik asoslarini ishlab chiqish va ularning imlosini o'rganish maqsad etib belgilangan.

- tilshunoslikda veterinariya terminlarning leksikografik talqini ishlab chiqilmaganligi echimini topish;
- mavjud tadqiqotni Ernst Begmatovning «O'zbek adabiy tili leksik qatlamlari» kitobi orqali solishtirish;
- o'zbek tilshunosligida veterinariya terminlarining izohli lug'atlaridagi va ularda hozirgi zamon veterinariya sohasiga tegishli so'z va iboralarning aks etishi.

Mavzu bo'yicha o'zbek tilshunosligida veterinariya terminlarining leksikografik talqini va uning imolosiga doir bo'lgan atamalarning bir-biriga solishtirilishi orqali ochib beriladi.

Masalan, «veterinariya» termini og'zaki nutqda rus tilidan olingan so'z bo'lganligi uchun aynan shunday aytilmaydi. Bu so'zda ikkinchi bo'g'indagi «e» unlisining «i» holatida talaffuz qilinishini kuzatishimiz mumkin. Lekin ushbu so'z shakliy tamoyil asosida yozilishi kerak.

KRIZIS \yun. krisis — hal qilish; burilish nuqtasi; oqibat] 1 Birdan, to'satdan yuz bergan o'zgarish, tang va mushkul ahvol; tanglik. Iskandar ruhiy krizisni boshidan kechirayotganida, Ashur unga eng makkor, hiylakor, yovuz odam bo'lib tuyuldi. «O'TA». Ish-sizlik va uy-joy krizisidan million-mil-lion



boshpanasiz amerikaliklar azob chekmoqda. [O'zbek tilining izohli lug'ati, 2: 484]

KRIZIS (gr. tasodif, o'zgarish) – kasallik tez kechayotgan paytda haroratning zudlik bilan me'yorgacha yoki hattoki, undan ham pastga tushishi natijasida vujudga kelgan keskin burilish holati. [H.S.Salimov, B.Sayitqulov, I.H.Salimov, 3 :70] Yuqorida keltirilgan «krizis» so'zining talaffuzida ham ikkinchi «i» tovushi daeyarli talaffuz qilinmaydi. o'zbek tilidagi ikki undosh tarkibida kelgan bir bo'g'inli so'zlarda «i» tovushi talaffuz qilinmasligi «bir va sir» so'zlarida kuzatilsa, xuddi shunday holatni «krizis» so'zida kuzatishimiz mumkin.

KORONAVIRUSLAR (lot.corona-toj)-Coronaviridae oilasiga mansub,genomi bir zanjirli RNKdan iborat, nuklein kapsidi naysimon,lipoproteid qobiqli, tojsimon virusdlar.Bu oilaga tashqi qobiqning tuzilishi umumiy bo'lgan viruslar kiradi. Virionlarning tashqi qobig'ida to'g'nag'ichga o'xshash bo'rtgan joylar quyosh tojini eslatadi. Koronaviruzlar yirik shoxli hayvonlar va parrandalarda gepatit, nevrit, ich o'tish entefalomiyelit va nafas yo'llari kasalliklarini qo'zg'atadi. Koronavirus atamasi og'zaki nutqda ko'proq «karonavirus» shaklida ishlatiladi. Ammo bu holat orfografiya qoidasiga zid hisoblanadi.

OILA [a. 4±.U — bola-chaqa, xonadon; urur, avlod] **1.** Er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui; xonadon. Ahil oila. San'atkorlar oilasi. Oila bosh-lig'i. **mm** [Eshvoy] Kambag'al bo'lishiga qaramay, Yo'lchining oilasiga.. yordam ko'rsatar edi. Oybek, Tanlangan asarlar. Oshaninghar bir a'zosi o'z ishi, yumushi bilan mashg'ul. H. G'ulom, Mash'al. Birovga qiziqish, oila qurish.. Bu gaplar Zamirani cho'chitar, Ochil uni yomon yo'lga boshlayotganday tuyulardi. P. Qodirov, Uch ildiz. [O'zbek tilining izohli lug'ati 2: 103]

OILA (lot. familia, ae, f) – hayvonlar, o'simliklar, mikroorganizmlar, viruslar sistemasining tarkibiga kiradigan taksomonik kategoriya. Kelib chiqishi bir-biriga yaqin bo'lgan avlodlar oilaga birlashtiriladi. Masalan, yuqumli rinotraxiet virusi – herpes oilasiga mansub. [H.S.Salimov, B.Sayitqulov, I.H.Salimov, 3:84] Oila terminida esa ikki unli orasida bir «y» undosh tovushining orttirilib talaffuz qilinishi kuzatiladi. Bunday orfoepik holat kuzatilsa-da, lekin biz yozuvda doimo adabiy til me'yori bo'lgan imlo qoidasi asosida yozishimiz shart.

Shundan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, «O'zbek tilining izohli lug'ati» bilan birga «o'zbek tilining imlo lug'ati» bir-biri bilan uzviy ravishda bog'liqlik



kasb etadi. Veterinariya terminlarida ham bunday talaffuz va me'yor atamalarning solishtirilishida sezilarli farq mavjud ekanligini ko'rsatadi.

Veterinar atamalarning «O'zbek tilining izohli lug'ati»dagi leksikografik talqini, uning o'ziga xos xususiyati, ijtimoiy, leksikologik, ta'limiy va boshqa sohalaridagi ahamiyati, mualliflik leksikografik qimmatini o'rganish, o'zbek tili atamalarini yaratishning leksikografik asoslarini ishlab chiqish va imlosini o'rganish maqsad etib belgilangan.

Har bir fan, kasb-hunar tarmog'i atamalarsiz ish ko'ra olmaydi. Shuning uchun atamashunoslik muammolari faqat tilshunoslikninggina emas, u barcha fan va veterinariya sohasining xam asosiy masalalaridandir. Shuning uchun ham Vazirlar Mahkamasi qoshida barcha fan, kasb-xunar sohalarida atamalarni tartibga solish muammosi bilan shug'ullanuvchi atamashunoslik qo'mitasi faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Atamalarni mumkin qadar milliylashtirish, tilimizning ichki imkoniyatlaridan atamalar yaratishda unumli foydalanish, shu bilan birga, iqtisodiy-siyosiy, ilmiy-texnik taraqqiyotimizga doir yangi tushunchalarni ifodalovchi chet tilidan kirib kelgan atamalarni ham zarur hollarda qabul qilish hozirgi atamashunosligimizning bosh tamoyili sanaladi. Shuning uchun xam xalq o'rtasida keng iste'molda bo'lgan radio, aeroport, institut, avtobus, telefon kabi atamalar tilimizda saqlab qolindi.

Shuningdek, iqtisodiy hayotimizda mustaqillik sharoitida buyuk burilishlar bo'lganligi sababli, ana shu reallikni ifodalovchi qator chet tilidan kirgan atamalar tayyor holda qabul qilindi: taksonomiya, aspergillyoz, uremiya, fitomsitlar, bursit, nefroz kabi. Ana shu yo'llar bilan atamalar izga solinmoqda. Bu atamalarning imlosi ham xalqimiz tomonidan qanday bo'lsa shundayligicha yozilishi kerak. Ko'pchilik yurtdoshlarimiz bunday holatda imloviy jihatdan xatoga yo'l qo'yishadi. Bu esa imlo qoidalarining builishiga olib keladi.

Ko'rinadiki, bir so'z umumxalq tilida bir ma'noni, ma'lum ixtisoslik sohasida esa boshqa ma'noni ifodalaydi yoki qosh so'zi umumxalq tilida «odamning yuz qismida ko'z kosasidan tepada yoysimon shaklda o'sib chiqqan yung» hamda «yon» (qoshimda o'tiribdi) ma'nolarini bildirsa, duradgorlikda boshqa ma'noni ifodalaydi.

Muayyan fan tarmoqlari, kasb-hunar sohalarida ma'lum tushunchalarni aniq ifodalash uchun umumxalq tilida ishlatilayotgan so'zlardan ma'nosini maxsuslashtirish yo'li bilan foydalanadi.





Har qanday fan sohalarining rivojida shu fanga doir atamalarni izga solish katta ahamiyatga ega. Istiqloлга erishgunga qadar o'zbek ilmiy-texnikaviy va boshqa sohalardagi atamalarning rivojiga e'tibor berilmadi. Natijada atamalarning ko'pchiligi rus tilida qanday bo'lsa, shundayligicha olindi. Shuningdek, o'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori (339-son.1995-yil 24-avgust.) ga asosan, tilimizda mavjud bo'lgan atamalarni ushbu imlo qoidasiga amal qilgan holatda yozishimish shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2-kitob. Akademik litset va kasb-hunar kollejlarning II bosqich. Qayta ishlangan 3-nashri Toshkent-«ILM ZIYO»-2015.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati, besh tomlik 2-3-5- tom. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008.
3. H.S.Salimov, B.Sayitqulov, I.H.Salimov. Veterinariya mikrobiologiyasi virusologiyasi epizootologiyasiga oid izohli lug'at va ma'lumotnoma «TAFAKKUR NASHRIYOTI» Toshkent 2013.206
4. Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev. «o'zbek tilining imlo lug'ati». Toshkent-«o'qituvchi»-2011.

